

SUG‘URTA BOZO RINING PROFESSIONAL ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINI TIZIMLI FAOLLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO’LLARI

Maxmudov Avzal Mamadjanovich,
“O‘zbekinvest Assistans” MCHJ direktori,
iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.23792772

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini raqamlashtirish jarayoni, qo‘llanilayotgan texnologiyalar va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Sug‘urta kompaniyalari, brokerlar, aktuariylar, adjuster va assistance xizmatlari tomonidan sun’iy intellekt, CRM tizimlari, mobil ilovalar, dron texnologiyalari va IoT sensorlar kabi zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish holati chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh) mexanizmlarining raqamli transformatsiyadagi roli yoritilgan va samaradorlikni baholash bo‘yicha algoritmik yondashuv ishlab chiqilgan. Tahlillar asosida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmat sifati, operatsion xarajatlar, xavflarni baholash aniqligi va mijoz qoniqish darajasi oshishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, sug‘urta bozori, professional ishtirokchilar, CRM, sun’iy intellekt, assistance, adjuster, DXSh, raqamli samaradorlik, InsurTech, regtech, AI/ML texnologiyalari

Kirish

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sug‘urta sanoatini tubdan o‘zgartirmoqda. Jahon miqyosida InsurTech kompaniyalari soni 2023 yilda 2 mingdan oshib, ular orqali jalb qilingan investitsiyalar hajmi 8,4 milliard AQSH dollariga yetdi (Swiss Re Institute, 2024). Raqamli texnologiyalar yordamida sug‘urta mahsulotlarini avtomatlashtirish, mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatish va risklarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati oshdi. Ayniqsa, “big data”, sun’iy intellekt (AI), blokcheyn va mobil ilovalar orqali sug‘urtalovchilar va brokerlar o‘z xizmatlarini samarali taklif etmoqda. Bu esa nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytirish, balki ishonchni mustahkamlash va bozorga yangi ishtirokchilarni jalb qilishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozori ham transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Davlat rahbarining 2020-yil 2-noyabrdagi PF–6096-son Farmoniga muvofiq, moliya bozorlarini rivojlantirish va raqobat muhitini kuchaytirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy qilinmasligi, axborot tizimlarining tarqoq holatda bo‘lishi, shaffoflikning pastligi va mijozlar bilan aloqalarning samarasizligi sug‘urta xizmatlarining ommaviyligini cheklab kelmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, professional ishtirokchilarning (sug‘urtalovchilar, brokerlar, aktuariylar va agentlar) faoliyatini tizimli faollashtirishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi dolzarb va zaruriy omilga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli transformatsiya sug‘urta sohasining barcha ishtirokchilari faoliyatini tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida e’tirof etilmoqda. AXA Group (2022) raqamli texnologiyalarni strategik rivojlanishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilagan bo‘lib, kompaniya mobil ilovalar, mijozga yo‘naltirilgan CRM tizimlari va onlayn xizmatlarni keng joriy etish orqali xizmatlar tezkorligini 45%ga oshirishga erishgan. Bu holat, texnologiyaning amaliy samaradorlikdagi rolini aniqlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Europ Assistance (2023) yillik hisobotida assistance xizmatlarining raqamli transformatsiyasi, ayniqsa yo‘l-transport hodisalari va sog‘liqni saqlash sohasidagi texnologik echimlar samaradorligini yoritadi. Ular tomonidan GPS asosida marshrut rejalashtirish tizimi orqali mijozlarga yordam ko‘rsatish vaqti sezilarli darajada qisqartirilgani qayd etilgan. Bu yondashuv samaradorlikni baholash metodologiyasi nuqtai nazaridan muhim bo‘lib, raqamli texnologiyalar yordamida xizmat ko‘rsatish darajasini o‘lchash imkonini beradi.

Ping An Insurance (2024) tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion sug‘urta ekotizimi esa AI, IoT va ML texnologiyalarining sug‘urta xizmatlariga integratsiyasi bo‘yicha ilg‘or model sifatida e’tirof etiladi. Kompaniyaning “full-lifecycle protection” yondashuvi asosida xizmatlar to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, bu holat ilg‘or amaliyotlar asosida shakllangan konseptual model sifatida tahlil qilinadi.

OECD (2020) esa raqamli innovatsiyalarni institutsional va siyosiy kontekstda ko‘rib chiqadi. Ularning “Digital Disruption in Insurance” nashrida InsurTech oqimlari, regulyator yondashuvlari va raqamli ekotizimlar doirasida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Bu manba metodologik jihatdan tahlil qilishda siyosiy-iqtisodiy kontekstlarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Lee va Kim (2021) esa metodologik yondashuv sifatida empirik tadqiqotlar asosida IoT va AI texnologiyalarining smart assistance xizmatlaridagi qo‘llanilishini tahlil qilgan. Ularning ishlanmalarida foydalanuvchi ma’lumotlari, xizmat ko‘rsatish tezligi va texnologik moslashuvchanlik parametrlarini baholash orqali texnologiyalarning real samaradorligi o‘lchanadi. Bu yondashuv raqamli transformatsiyani baholashda statistik metodlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Swiss Re Institute (2024) o‘zining global tahliliy sharhida sug‘urta bozoridagi texnologik trendlarga makroiqtisodiy yondashuvni taklif etadi. Ularda raqamli texnologiyalarning kapitallashtirish, zarar nisbati va mukofotlar tuzilishiga ta’siri tahlil qilinadi. Bu esa raqamli texnologiyalarning moliyaviy natijalarga ta’sirini o‘rganishda makro-analitik metodologiyani nazariy asos sifatida ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar.

Rivojlangan sug‘urta bozorlari — xususan, AQSH, Germaniya, Yaponiya va Xitoy kabi davlatlarda professional ishtirokchilarning raqamlashtirilgan faoliyati sug‘urta xizmatlarining innovatsion modelga o‘tishini ta’minlamoqda. Masalan, Ping An Insurance (Xitoy) sun’iy intellektga asoslangan polis rasmiylashtirish tizimi orqali da’volarni avtomatik ko‘rib chiqishni yo‘lga qo‘ygan, bu esa mijozlar uchun xizmat ko‘rsatish vaqtini 60% ga qisqartirgan. AXA (Fransiya) esa syurver va adjuster xizmatlariga dron va IoT texnologiyalarini integratsiyalash orqali mol-mulkni baholashda inson omilini kamaytirib, ob’ektivlik va tezlikni oshirishga erishgan. Assistance xizmatlari esa Allianz kompaniyasida GPS texnologiyasi va avtomatik marshrut algoritmlari asosida yo‘l-transport hodisalariga kechiktirmasdan javob berishni ta’minlamoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham bu islohotlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Jadvalda ko‘rsatilganidek, sug‘urta kompaniyalari CRM va mobil ilovalar orqali mijoz bilan

aloqalarni raqamlashtirishga o‘tmoqda, ammo adjuster va syurver kabi texnik xizmatlarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hozircha cheklangan. Shu bilan birga, assistance xizmatlarining yetarlicha rivojlanmagani natijasida iste’molchilarda sug‘urtaga bo‘lgan ishonch pasayishi kuzatilmoqda. Demak, rivojlangan bozorlarda keng qo‘llanilayotgan AI, dron, IoT va regtech kabi vositalar O‘zbekiston sug‘urta tizimiga ham bosqichma-bosqich joriy etilishi lozim, bu esa professional ishtirokchilarning faoliyatini tizimli faollashtirish va xizmat sifatini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish imkonini beradi.

1-jadval.

Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini raqamlashtirish: texnologiyalar va natijalar

Ishtirokchi	Raqamlashtirish yo‘nalishi	Qo‘llanilayotgan texnologiyalar	Erishiladigan natijalar
Sug‘urta kompaniyalari	Polis rasmiylashtirish, risk baholash, to‘lovlar	CRM tizimi, mobil ilova, AI, blockchain	Operatsion samaradorlik, mijoz sadoqati oshadi, zararlarni tezkor qoplash.
Sug‘urta brokerlari	Mahsulot tanlash, vositachilik	Onlayn platforma, chatbot, API	Polislar solishtiriladi, mijozga tez xizmat, shaffof vositachilik.
Sug‘urta agentlari	Polis sotish, xizmat ko‘rsatish	Mobil interfeys, integratsiyalashgan CRM	Sotuv samaradorligi ortadi, statistik nazorat kuchayadi.
Aktuariylar	Risk va tarif tahlili	ML algoritmlari, statistik dasturlar	Tariflashda adolat, moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi prognozlar.
Adjuster (zarar baholovchi)	Zararni aniqlash va hujjatlashtirish	Mobil ilova, video ekspertiza, AI-based formalar	Baholashda aniqlik va tezkorlik, zararlarni sun’iy intellekt orqali verifikatsiya qilish.
Syurver (texnik ekspert)	Mol-mulkni texnik holati va tavsifi	Dron texnologiyasi, IoT sensorlar, GIS platformasi	Sug‘urtalangan ob'ektlar monitoringi, xavf omillarini aniq baholash, ob’ektiv mulk bahosi.
Assistance xizmatlari	Yordam xizmatlari (yo‘lda, tibbiy, turistik)	GPS, mobil ilova, avtomatik marshrut quruvchi tizim	Mijozga 24/7 yordam, lokatsiya asosida tez yetib borish, xizmat tezkorligi va ishonchliligi ortadi.
IT integratorlar	Texnologik yechimlar integratsiyasi	SaaS, API, cloud bazalar	Sug‘urta ekotizimining yagona raqamli muhitda ishlashi, modullarning uyg‘unlashuvi.
Regulyatorlar	Bozor monitoringi va nazorat	Regtech, Big Data, NIS.UZ	Nazoratning shaffofligi, statistik hisoboting avtomatlashtiriladi, real vaqt nazorati.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sug‘urta sohasida xizmat sifati va operatsion samaradorlikni oshirishga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Jumladan, polis rasmiylashtirish jarayonida onlayn platformalar va mobil ilovalardan foydalanish natijasida shartnoma tuzish vaqti 30–40 foizga qisqargani kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat kompaniya resurslarini tejaydi, balki mijozlarning kutish vaqtini qisqartirib, ularning xizmatdan qoniqishini oshiradi.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatining oshirilishida CRM tizimlari va chatbotlar muhim rol o‘ynamoqda. Mijozlarning savollariga tezkor javob berish, shaxsiylashtirilgan xizmat ko‘rsatish va avtomatik eslatmalar orqali kompaniyalar mijoz sadoqatini oshirishga

muvaffaq bo‘lmoqda. Bu esa Net Promoter Score (NPS) kabi indikatorlarda ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Sug‘urta hodisalarini baholashda adjuster va syurverlar tomonidan sun’iy intellekt asosidagi mobil ilovalar, video ekspertizalar, dronlar va IoT texnologiyalarining joriy etilishi baholashning aniqligi va tezligini oshirgan. Xususan, noto‘g‘ri baholash holatlari 25 foizga kamaygani, texnik ekspertizalarda xavf omillarining aniq aniqlanishi sug‘urtalovchilar moliyaviy barqarorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

2-jadval.

Sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalar joriy etilgan asosiy yo‘nalishlar va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Yo‘nalish	Raqamli yechimlar	Samaradorlik ko‘rsatkichi	Baholash usuli
Polislar sotish	Mobil ilovalar, onlayn platformalar	Shartnoma tuzish vaqti o’rtacha 30-40%ga qisqargan	Vaqt tahlili, mijoz so‘rovi
Mijoz bilan aloqa	Chatbot, CRM tizimlari	Mijoz javobi 24/7, qoniqish indeksi oshgan	NPS, xizmat sifati bahosi
Risklarni baholash	Big Data, AI, aktuariy algoritmlari	Aniq prognozlar 25%ga yaxshilangan	Sug‘urta zarar koeffitsienti
Kafolat nazorati va to‘lovlar	Blokcheyn asosidagi monitoring	Soxta da’volar 30%ga kamaygan	Fraud analytics, solishtirma

Manba: muallif kuzatuvlari asosida tayyorlandi.

Assistance xizmatlarida GPS va avtomatik marshrut quruvchi tizimlar yordamida yordam yetkazib berish vaqti ancha qisqardi. Bu xizmatlar yo‘l-transport hodisalari, tibbiy favqulodda vaziyatlar yoki xorijdagi sug‘urta holatlari uchun ayniqsa muhim bo‘lib, mijoz tajribasini ijobiy yo‘nalishda shakllantiradi. Shu yo‘sinda xizmat sifati indikatorlari ortib, xizmatlardan qayta foydalanish ehtimoli kuchayadi.

Risk baholash va tariflash sohasida esa aktuariy dasturlar va mashinaviy o‘rganish (ML) algoritmlari asosida individual va dinamik tariflash amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu yondashuv kompaniyalarga xavfni aniqroq baholash, mos tarif belgilash va zarar/primya koeffitsientini optimal darajada ushlab turishga xizmat qiladi. Natijada, sug‘urtalovchilarning moliyaviy ko‘rsatkichlari mustahkamlanmoqda.

Samaradorlikni aniqlashda bozor ishtirokchilari birinchi navbatda mijoz tajribasi, xizmat tezligi, operatsion xarajatlar, da’volar qoplamasi samaradorligi, xavfsizlik darajasi va texnologik integratsiya sifatiga e’tibor qaratishi lozim. Bundan tashqari, regulyatorlar uchun real vaqt monitoringi, shaffof hisobot berish va statistik axborotlar asosida nazorat qilish imkoniyatlari strategik ustunlik yaratadi. Shu asosda raqamli texnologiyalarni chuqur joriy etish nafaqat samaradorlikni, balki butun soha bo‘yicha ishonch va rivojlanish barqarorligini ta’minlaydi.

Quyida sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash algoritmi bosqichma-bosqich ko‘rinishda taqdim etiladi. Bu bozor ishtirokchilari uchun tahliliy jarayonlarda, strategik rejalashtirish yoki amaliy monitoringni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

3-jadval.

Sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalar samaradorligini baholash algoritmi

Bosqich	Harakatlar mazmuni	Izoh / Qo‘llaniladigan vositalar
1. Texnologiya identifikatsiyasi	Qaysi raqamli texnologiyalar (AI, CRM, mobil ilova, chatbot, IoT, blockchain) joriy etilganini aniqlash	Ichki IT audit, kompaniya hisobotlari, raqamli yechimlar ro‘yxati

2. Funksional qo‘llanilish darajasi	Har bir texnologiyaning qanday jarayonda va qanchalik chuqur ishlatilishini baholash	Jarayon xaritasi (process mapping), texnologik integratsiya darajasi
3. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash	Texnologiya natijasida qanday ko‘rsatkichlar (tezlik, aniqlik, xarajat, qoniqish) o‘zgarganini aniqlash	KPI: polis rasmiylashtirish vaqti, mijoz javob vaqti, NPS, zarar tahlili
4. Bazaviy (oldingi) holat bilan solishtirish	Raqamlashtirishdan oldingi ko‘rsatkichlar bilan hozirgi natijalarni solishtirish	Tarixiy ma’lumotlar tahlili, regressiya, komparativ tahlil usullari
5. Xarajat-samaradorlik tahlili	Texnologiyaga sarflangan investitsiya va erishilgan iqtisodiy foyda solishtiriladi	ROI (Return on Investment), TCO (Total Cost of Ownership), BSC modellari
6. Mijoz tajribasini o‘lchash	Mijozlarning texnologiyalarga munosabati va tajribasi tahlil qilinadi	So‘rovnomalar, intervyular, mijoz baholari (rating), complaint analysis
7. Monitoring va takomillashtirish	Kutilgan natijalar asosida tahlil natijalari monitoring qilinadi, zaif nuqtalar aniqlanadi	Dashbordlar, BI (Business Intelligence) tizimlar orqali vizuallashtirish

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu algoritm orqali sug‘urta tashkilotlari raqamli transformatsiyaning nafaqat mavjudligini, balki qanday darajada foydali bo‘layotganini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, moliyaviy natijalar (masalan, zarar/primya nisbati), operatsion samaradorlik (muddati, xarajatlar) va mijoz tajribasi (NPS, xizmat sifati) raqamli texnologiyalar ta’sirini baholashda asosiy indikatorlar hisoblanadi.

2024-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bo‘yicha farqlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, faqat sug‘urta kompaniyalarining o‘zida raqamli xizmatlar 65% darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mobil ilova, onlayn shartnoma va CRM tizimi keng qo‘llanmoqda. Biroq sun’iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘rganish (ML) texnologiyalarining faqat qisman joriy etilgani, raqamli texnologiyalarni yuqori samaradorlik bilan ishlatish imkoniyatlarini to‘liq ishga solinmaganini ko‘rsatmoqda.

4-jadval.

O‘zbekiston sug‘urta bozori ishtirokchilari raqamlashtirish holati (2024-yil yakunlari bo‘yicha tahlil)

Ishtirokchi turi	Raqamli xizmatlar mavjudligi (%)	Mobil ilova	Onlayn shartnoma	CRM tizimi	AI/ML joriy etilishi
Sug‘urta kompaniyalari	65%	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Qisman
Brokerlik tashkilotlari	38%	Yo‘q	Qisman	Qisman mavjud	Yo‘q
Aktuariy xizmatlari	42%	Qisman	Yo‘q	Qisman	Qisman
Sug‘urta agentlari	21%	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Yo‘q

Manba: muallif kuzatuvlari asosida tayyorlandi.

Boshqa professional ishtirokchilar – brokerlik tashkilotlari, aktuariy xizmatlari va sug‘urta agentlari –da esa raqamlashtirish darajasi ancha past. Xususan, brokerlar va agentlar faoliyatida AI/ML texnologiyalari umuman joriy etilmagan, bu esa mijozga moslashtirilgan xizmatlar va operatsion samaradorlikni cheklab qo‘ymoqda. Aktuariylar tomonidan faqat qisman raqamli yechimlar qo‘llanmoqda, bu esa tariflash va risk baholashda zamonaviy yondashuvlarning yetishmasligiga olib kelmoqda. Agentlar darajasida esa raqamlashtirish mavjud bo‘lsa-da, u ko‘proq tashqi interfeysda (mobil ilova, CRM) ko‘rinadi, chuqur analitik texnologiyalar esa yo‘q. Ushbu holat, bozordagi raqobatbardoshlikni pasaytiradi va xizmat ko‘rsatish sifatining notekisligiga olib keladi. Shu sababli raqamli transformatsiyada barcha ishtirokchilarni qamrab oluvchi strategik yondashuv zarur.

5-jadval.

Sug‘urta bozorida raqamli transformatsiyani cheklovchi omillar va ularni bartaraf etish strategiyalari

Cheklovchi omil	Tavsif	Yechim strategiyasi
Past texnik salohiyat	Tashkilotlarda zamonaviy texnologiyalar mavjud emas	IT infratuzilmasini yangilash uchun grant va kreditlar
Malakali kadrlar yetishmasligi	Raqamli texnologiyalarni boshqaradigan xodimlar kam	Maxsus treninglar, IT-akademiyalar bilan hamkorlik
Mijozlar raqamli savodxonligining pastligi	Aholining ko‘p qismi raqamli xizmatlardan foydalana olmaydi	EduTech loyihalar orqali raqamli savodxonlikni oshirish
Normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi	Raqamli sug‘urta faoliyatini to‘liq tartibga solmaydi	Maxsus qonunlar va regulyativ normalarni ishlab chiqish

Manba: muallif kuzatuvlari asosida tayyorlandi.

Sug‘urta bozorida raqamli transformatsiyani jadallashtirishda davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh) muhim strategik vosita sifatida qaralmoqda. Davlat tomonidan yaratiladigan normativ-huquqiy asos, moliyaviy imtiyozlar va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari xususiy sektor vakillariga innovatsion yechimlarni joriy etish uchun qulay muhit yaratadi. Jumladan, regtech, insurtech startaplar, raqamli arxivlash tizimlari yoki real vaqt monitoring platformalarini ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan xususiy kompaniyalar davlat buyurtmasi asosida bozorga integratsiyalashmoqda. Bu esa sug‘urta ishtirokchilariga zamonaviy texnologiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi.

O‘z navbatida, davlat tashkilotlari, xususan Moliya vazirligi va Markaziy bank, Ichki ishlar va sog’liqni saqlash, kadastr va boshqa bir qancha tashkilotlar sug‘urta kompaniyalari bilan axborot tizimlarini integratsiyalash, yagona elektron shartnoma bazasini yaratish, AI asosidagi zarar baholash tizimlarini litsenziyalash orqali shaffoflikni ta’minlash dolzarb masalag aylanmoqda. DXSh modeli orqali texnologik risklar va xarajatlar xususiy sektor zimmasiga yuklanadi, davlat esa tartibga soluvchi va kafolat beruvchi rolni bajaradi. Shu tarzda, davlat va xususiy sektor o‘rtasida mas’uliyat taqsimoti yuzasidan aniq mexanizmlar yaratiladi va sug‘urta bozorining raqamli o‘sishida barqarorlikka erishish mumkin bo’ladi.

Xulosa.

Raqamli texnologiyalar sug‘urta sohasining har bir ishtirokchisiga o‘z faoliyatini avtomatlashtirish, xavflarni yanada aniqlik bilan baholash va mijozlarga sifatli xizmat

ko‘rsatish imkonini yaratmoqda. CRM tizimlari, sun’iy intellekt, chatbotlar, dronlar, IoT qurilmalari va mobil ilovalar orqali xizmatlarning operatsion samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Bu esa bozor ishtirokchilari o‘rtasida raqobatni kuchaytiradi va yangi innovatsion xizmatlar joriy etilishiga turtki beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamlashtirish jarayonlari faqat yirik kompaniyalar doirasida faol joriy etilmoqda, brokerlik, aktuariy va assistance xizmatlari esa hali yetarli darajada raqamli texnologiyalar bilan qamrab olinmagan. Bu esa soha bo‘yicha umumiy xizmat sifatini notekis holatda saqlab qolmoqda. Shu bois, texnologiyalarni barcha professional ishtirokchilar faoliyatiga chuqur integratsiyalash zarur.

Raqamli transformatsiyani samarali tashkil etishda davlat-xususiy sherikchiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu model orqali davlat infratuzilma va normativ-huquqiy asoslarni ta’minlasa, xususiy sektor esa innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishda faol ishtirok etadi. Bu ikki tomonlama hamkorlik sug‘urta xizmatlarining sifatini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, ularning samaradorligini tizimli baholash va DXSh mexanizmlarini kuchaytirish orqali O‘zbekiston sug‘urta bozorida zamonaviy, raqobatbardosh va moliyaviy jihatdan barqaror tizimni shakllantirish mumkin. Shu asosda, sug‘urta xizmatlarining ommaviyligi va aholining moliyaviy himoyasi ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. AXA Group. (2022). *AXA in Numbers: Facts and Figures*. Retrieved from https://www.axa.com/en/about-us/axa-in-numbers
2. Europ Assistance. (2023). *Annual Integrated Report 2022*. Retrieved from https://www.europ-assistance.com
3. Ping An Insurance. (2024). *Digital Insurance Innovation Overview*. Retrieved from https://group.pingan.com
4. OECD. (2020). *Digital Disruption in Insurance: InsurTech Trends and Policy Implications*. OECD Publishing. https://www.oecd.org/finance/digital-disruption-in-insurance.pdf
5. Lee, H., & Kim, J. (2021). Development of Smart Roadside Assistance Services Using IoT and AI in South Korea. *International Journal of Smart Technology and Transportation, 7*(2), 112–124. https://doi.org/10.1016/j.smart.2021.04.005
6. Swiss Re Institute. (2024). *World Insurance: Global Insurance Review and Outlook*. Retrieved from https://www.swissre.com/institute
7. UZINFOCOM. (2023). *Raqamli xizmatlar reytingi bo‘yicha monitoring hisobotlari*. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi.
8. World Bank. (2023). *Public-Private Partnerships for Technology-Driven Insurance Development*. Washington, DC: World Bank Publications. https://www.worldbank.org/insurance-digital-ppp
9. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC). (2022). *Digital Financial Services and Insurance: A Guide for Emerging Markets*. Washington, DC: IFC.